biiy va qiziqarli tarzda o‘zlashtirish imkonini yaratadi. Bu esa o‘zlashtirilgan bilimlarning uzoq muddat xotirada saqlanishiga xizmat qiladi.[1]

O‘rganishlar zamonaviy pedagogik texnologiyalarni uyg‘un holda qo‘llash eng yuqori samarani berishini ko‘rsatdi. Interfaol metodlarni raqamli vositalar bilan birlashtirish, guruhli faoliyatni multimedia materiallari bilan boyitish hamda kommunikativ topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarning leksik kompetensiyasini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday yondashuv mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini shakllantiradi, ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradi va o‘quv faoliyatining sifatini oshiradi.

Umuman, olingan natijalar zamonaviy pedagogik texnologiyalar leksik zaxirani boyitishning samarali vositasi ekanligini tasdiqladi. Ular nutqiy kompetensiyani rivojlantirish, til birliklaridan o‘rinli foydalanish, muloqot madaniyatini shakllantirish hamda o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bois ta’lim amaliyotida interfaol metodlar, kommunikativ yondashuv va raqamli resurslardan keng foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Bugungi kunda o‘quvchilarning leksik zaxirasini boyitish ta’lim jarayonining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish hamda ta’lim samaradorligini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, interfaol metodlar, kommunikativ yondashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va gamifikatsiya elementlaridan foydalanish yangi leksik birliklarni samarali o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari o‘quvchilar yangi so‘zlarni amaliy faoliyat davomida qo‘llagan hollarda ularni tezroq o‘zlashtirishi va uzoq muddat eslab qolishini ko‘rsatdi. Shu bois ta’lim jarayonida o‘quvchilarni faol muloqotga jalb etish, guruhli ishlar, munozaralar, ijodiy topshiriqlar hamda raqamli ta’lim vositalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga tizimli ravishda joriy etish nafaqat o‘quvchilarning leksik zaxirasini boyitadi, balki ularning mustaqil fikrlash, ijodkorlik va muloqot kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Kelgusida mazkur yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar leksik kompetensiyani rivojlantirishning yangi usul va vositalarini ishlab chiqishga hamda ta’lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim tizimini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari hamda sohaga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar.

(2). Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik asoslari. Toshkent, “Sangzor”, 2006, 220-bet.

(3).Mahmudov N. Til va nutq masalalari. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2013, 240-bet.

(4). Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent, “Nihol”, 2013, 280-bet.

(5). Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent, “Fan”, 2006, 260-bet.

(6). Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent, “Moliya”, 2003, 172-bet.

(7). Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иностранному языку. Москва, Просвещение,1991, с.223

(8). Галскова Н.Д. Теория обучения иностранным языкам. Лигводидактика и методика. Москва, «Академия», 2008, с.336

(9). Бим И.Л. Теория и практика обучения немецкому языку в средней школе. Москва, «Просвещение», 1988, с.256

(10). Yo‘ldoshev M. Matn lingvistikasi asoslari. Toshkent, “Fan”, 2007, 180-bet.

Tajimuratova Karima Abdullaevna (Ajiniyoz nomidagi NDPI “Maktabgacha tarbiya va defektologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi),
Kalibaeva Ulzada Erkinbaevna (NDPI Logopediya yo‘nalishi I bosqich magistranti)

KO‘RISH QOBILIYATI BUZILGAN BOLALAR BILAN KORREKSION-LOGOPEDIK ISH OLIB BORISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-logopedik ishning nazariy asoslari, usullari va amaliy yo‘nalishlari yoritilgan. Maqolada tiflopedagogika va logopediyaning o‘zaro bog‘liqligi, ko‘rish nuqsoni bilan birga keladigan nutq buzilishlarining turlari, logopedik tekshiruv va korreksiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari hamda maxsus ta’lim muassasa-*

[1] Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent, “Fan”, 2006.

larida ishlash tajribasidan namunalar keltirilgan. Tizimli tahlil natijasida logopedik seanslar normativi va uch bosqichli korreksion model ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *ko'rish qobiliyati buzilishi, tiflopedagogika, logopediya, korreksion ta'lim, nutq buzilishi, sensor deprivatsiya, maxsus ta'lim.*

КОРРЕКЦИОННО-ЛОГОПЕДИЧЕСКАЯ РАБОТА С ДЕТЬМИ С НАРУШЕНИЯМИ ЗРЕНИЯ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические основы, методы и практические направления коррекционной и логопедической работы с детьми с нарушениями зрения. В работе освещены взаимосвязь тифлопедагогики и логопедии, виды речевых нарушений, особенности процесса логопедического обследования и коррекции. На основе системного анализа предложены нормативы логопедических занятий и трехэтапная модель коррекционной работы.*

Ключевые слова: *нарушение зрения, тифлопедагогика, логопедия, коррекционное образование, нарушения речи, сенсорная депривация, специальное образование.*

CONDUCTING CORRECTIONAL AND SPEECH THERAPY WORK WITH CHILDREN WITH VISUAL IMPAIRMENTS

Annotation. *This article covers the theoretical foundations, methods, and practical directions of correctional and speech therapy work with children with visual impairments. The paper addresses the interconnection between typhlopedagogy and speech therapy, types of speech disorders, and specific features of the examination and correction process. Through a systematic literature review, speech therapy session standards and a three-stage correctional model are formulated.*

Keywords: *visual impairment, typhlopedagogy, speech therapy, correctional education, speech disorders, sensory deprivation, special education.*

Kirish. Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar bilan ishlash maxsus pedagogika fanining, xususan, tiflopedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biridir. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab 43 milliondan ortiq kishi ko'rlikdan aziyat chekmoqda, shulardan sezilarli qismi bolalar hisoblanadi. O'zbekistonda ham ko'rish nuqsoni bilan tug'ilgan yoki hayotining dastlabki yillarida ko'rish qobiliyatini yo'qotgan bolalar soni tobora ko'payib bormoqda. Ko'rish bolalik davrida nutqni o'zlashtirishning asosiy kanallaridan biri sanaladi. Bolalar atrofdagi narsalar, hodisalar va kishilar bilan aloqa o'rnatishda ko'rish orqali olingan ma'lumotlardan keng foydalanadilar. Shu sababli ko'rish analizatorining shikastlanishi nutqning shakllanishiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tiflologiya sohasidagi tadqiqotlarga ko'ra [7;22,6;34-b.], ko'rish nuqsoni bo'lgan bolalarning 65–80% foizida turli darajadagi nutq buzilishlari kuzatiladi. Korreksion-logopedik ish – bu bolaning nutq, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishidagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan tizimli, maqsadli pedagogik faoliyatdir. Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar bilan ishlashda logoped tiflopedagog, oftalmolog, psixolog va ota-onalar bilan hamkorlikda ish yuritadi. Bunday kompleks yondashuv korreksion ishning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarda nutq rivojlanishi va ularga korreksion-logopedik yordam ko'rsatish masalasi maxsus pedagogika (tiflopedagogika) va logopediyaning chorrahasidagi eng dolzarb muammolardan biri sanaladi. Mazkur tadqiqot doirasida 1973–2022-yillar oralig'ida chop etilgan mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar tizimli hamda qiyosiy tahlil qilindi. M.I.Zemsova (1973) o'zining fundamental ishlarida ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish metodikasining dastlabki ilmiy asoslarini ishlab chiqqan bo'lib, sensor nuqsonning umumiy rivojlanishga ta'sirini kompensatsiya jarayonlari orqali tushuntiradi. L. I.Solnseva (2006) zamonaviy tiflopedagogika va tiflopsixologiyaning dolzarb muammolarini tahlil qilar ekan, ko'rish analizatorining shikastlanishi nutqning shakllanishiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatishini alohida ta'kidlaydi. Olimaning ma'lumotlariga ko'ra, ko'rish nuqsoni bo'lgan bolalarning 65–80% foizida turli darajadagi nutq buzilishlari kuzatiladi. Ko'rish imkoniyati cheklangan bolalarda muloqot va til vositalarining yetishmasligi bevosita sensor deprivatsiya bilan bog'liq. A.G.Litva (2015) ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarda nutq rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etib, vizual idrokning cheklanganligi sababli bolalar leksik-semantik, fonetik-fonematik va grammatik qiyinchiliklarga duch kelishini isbotlagan. T.B.Filicheva va G.V.Chirkina (2008) tomonidan ishlab chiqilgan logopedik ish dasturlarida, vizual tayanch mavjud bo'lmagan holatlarda nutq korreksiyasini tashkil etish uchun dars jarayonida eshitish, teritaktil, kinestetik va hid bilish analizatorlarini maksimal darajada jalb etish zarurligi asoslab berilgan. L.I. Plaksina (2011) ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar bilan psixologik-pedagogik ishlarni tashkil etishda ko'p tomonlama hamkorlik modelini ilgari suradi. N.R.Khudoyberdiyeva (2022) o'z tadqiqotlarida korreksion jarayonga ota-onalar faol jalb etilganda, bolaning nutqiy rivojlanishi faqatgina logoped bilan cheklangan

mashg‘ulotlarga qaraganda 2–3 marta tezlashishini aniqlagan. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi (2020) tomonidan tasdiqlangan maxsus ta’lim muassasalari uchun me’yoriy hujjatlar to‘plami esa bugungi kunda korreksion-logopedik mashg‘ulotlarning huquqiy asosi va vaqt normativlarini belgilab beradi.

Tadqiqot maqsadi. Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili orqali ushbu sohadagi asosiy yondashuvlarni tizimlashtirish va amaliyotchilar uchun tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Metodlar. Ushbu tadqiqotda tizimli va qiyosiy adabiyotlar tahlili (systematic literature review) metodidan foydalanildi. Tahlil jarayoni 1973–2022-yillar oralig‘ida nashr etilgan 7 ta mahalliy va xorijiy nufuzli ilmiy manba hamda me’yoriy hujjatlar asosida amalga oshirildi.

Tadqiqotda tiflopedagogika va logopediyaning o‘zaro bog‘liqligi, maxsus ta’lim muassasalarida korreksion-logopedik ishni tashkil etish tamoyillari va korreksiya bosqichlari qiyosiy o‘rganildi. Ma’lumotlarni saralashda ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalardagi sensor deprivatsiya va uning nutq rivojlanishiga ta’siri mezonlariga tayanildi. Tanlab olingan adabiyotlar qiyosiy-mantiqiy tahlil qilinib, amaliy logopedik tavsiyalar ko‘rinishida umumlashtirildi.

Natijalar. Olib borilgan ilmiy manbalar tahlili natijasida ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalardagi nutqiy muammolar va ularni korreksiyalash tizimi quyidagicha tizimlashtirildi:

1. Sensor deprivatsiyaning oqibatlari va nutq muammolari. Tashqi muhitdan olinadigan sezgi ma’lumotlarining keskin kamayishi natijasida bola atrof-muhit haqidagi ma’lumotlarning katta qismini qabul qila olmaydi. Bu, birinchi navbatda, so‘z boyligining shakllanishi, atributiv so‘zlar, fe’llar va bog‘lovchi so‘zlarni o‘rganishga to‘sqinlik qiladi. Rang, shakl, o‘lcham va masofani ifodalovchi so‘zlar mazmuni tushunarsiz qoladi, mimika va imo-ishoralarni kuzata olmaslik muloqot qiyinchiligiga sabab bo‘ladi. Natijada bolalarda fonetik-fonematik buzilishlar (artikulatsiyani ko‘rish orqali kuzata olmaslik sababli), leksik-semantik kamchiliklar, grammatik tuzilmaning buzilishi, aloqador nutq rivojlanmay qolishi hamda duduqlanish ko‘proq uchraydi.

2. Logopedik seanslar normativi. Ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalar bilan logopedik ish individual va kichik guruhli (2–3 bola) shakllarda olib boriladi. Ish jadvalini tashkil etishda haftasiga 3–4 marta individual seans (30–40 daqiqa) va 1–2 marta guruhli seans (30–35 daqiqa) o‘tkazish maqbul format ekanligi belgilandi.

3. Korreksiya bosqichlari. Tizimli logopedik ish uchta asosiy bosqichda amalga oshirilishi aniqlandi:

Diagnostik bosqich (1–2 hafta): nutq buzilishlarini aniqlash, ko‘rish qobiliyatining darajasini hisobga olgan holda kompleks tekshiruv o‘tkazish, individual korreksion reja tuzish;

Korreksion-rivojlantiruvchi bosqich (6–24 oy): individual va guruhli mashg‘ulotlar orqali nutq buzilishlarini bartaraf etish, so‘z boyligini, grammatik tuzilmani va aloqador nutqni rivojlantirish;

Mustahkamlash va monitoring bosqichi: erishilgan natijalarni turli kommunikativ vaziyatlarda mustahkamlash, davriy tahlil va korreksiyani davom ettirish.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy logopedik tekshiruv va korreksiya usullarini ko‘rish nuqsoni bo‘lgan bolalarga to‘g‘ridan to‘g‘ri tatbiq etib bo‘lmaydi. Tekshiruv jarayonida eshitish, teri-taktil, kinestetik va hid bilish analizatorlarini maksimal jalb etish, ko‘rgazmali materiallarni qolgan ko‘rish qobiliyatiga moslashtirish va seans muddatini 30–35 daqiqa bilan cheklash zarur [1;41-b.].

Korreksion ishlar samaradorligini oshirishda ko‘p tomonlama hamkorlik modelining o‘rni beqiyosdir. Ushbu integratsiyada oftalmolog ko‘rish darajasi bo‘yicha, tiflopedagog Braille o‘qish-yozish va orientatsiya bo‘yicha, psixolog esa emotsional-irodaviy soha bo‘yicha ishlaydi [5;18-b.]. Jarayonga ota-onalarni jalb etish alohida ahamiyatga ega: ota-onalar faol ishtirok etganda bolaning nutq rivojlanishi faqat logoped bilan ishlashga nisbatan 2–3 marta tezlashishi aniqlangan.

Zamonaviy ekran o‘quvchi dasturlari ("Logoped’s Cabinet", "Mersibo", "Speech Technology") va nutqni tanib olish texnologiyalari korreksion ishni raqamlashtirish hamda samaradorlikni oshirish imkonini bermoqda [2;51-b.]. Biroq O‘zbekiston sharoitida tiflologiya bo‘yicha mutaxassislar yetishmasligi va maxsus maktablarning moddiy-texnik bazasi cheklanganligi ushbu innovatsiyalarni keng joriy etishda tizimli to‘siq bo‘lib qolmoqda [4;61-b.]

Xulosa. Ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalar bilan korreksion-logopedik ish olib borish an’anaviy logopedik yondashuvlarni tiflopedagogika, psixologiya va reabilitatsiya tibbiyotining ilg‘or yutuqlari bilan uyg‘unlashtirishni talab qiladi. Muammoni bartaraf etishda kompleks, ko‘p mutaxassisli yondashuv hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Kelajakda ushbu sohadagi ishni yanada takomillashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlar zarur deb hisoblanadi: logopedlarni tiflopedagogika asoslarida maxsus maqsadli tayyorlash; multimodal va raqamli

texnologik yondashuvlarni kengaytirish; ota-onalar bilan amaliy hamkorlikni mustahkamlash hamda inkluziv ta'lim siyosatini davlat darajasida qo'llab-quvvatlashni davom ettirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Filicheva T.B., Chirkina G.V. (2008). Logopedik ish dasturi. "Prosveshcheniye".

(2). Khudoyberdiyeva N.R. (2022). Inkluziv ta'limda ko'rish nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash tajribasi. "Pedagogika va psixologiya", 2, 33–41-betlar.

(3). Litva A.G. (2015). Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarda nutq rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari. "Defektologiya" jurnali, 3, 45–52-betlar.

(4). O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi. (2020). Maxsus ta'lim muassasalari uchun me'yoriy hujjatlar to'plami. Ta'lim vazirligi nashriyoti.

(5). Plaksina L.I. (2011). Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar bilan psixologik-pedagogik ish. "Maxsus ta'lim", 4, 18–27-betlar.

(6). Solnseva L.I. (2006). Tiflopedagogika va tiflopsixologiya: zamonaviy muammolar. Poligraf servis.

(7). Zemsova M.I. (1973). Bolalar ko'rish qobiliyatining buzilishi va ularni o'rgatish usullari. "Pedagogika".

Юлдашев Бектош Алишерович (Самаркандский государственный медицинский университет, г. Самарканд, Узбекистан; УДК 13.00.02; Orcid: 0009-0005-3044-9858)

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ ФАРМАЦЕВТОВ НА ОСНОВЕ СИМУЛЯЦИОННЫХ И ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация. *В статье рассматривается методика развития профессиональных компетенций студентов фармацевтических специальностей средствами симуляционного обучения и цифровых образовательных инструментов. На основе педагогического эксперимента, проведённого со студентами III–IV курса фармацевтического профиля (n=84), показано, что применение виртуальных аптечных симуляторов, стандартизированных сценариев взаимодействия с пациентом и электронной образовательной среды приводит к статистически значимому росту показателей профессиональной компетентности по сравнению с традиционной моделью обучения. Приведён обзор отечественных и зарубежных источников по проблеме, описана методика исследования, представлены количественные результаты и их обсуждение.*

Ключевые слова: *фармацевтическое образование, профессиональные компетенции, инновационные образовательные технологии, симуляционное обучение, цифровизация образования, провизор, компетентностный подход.*

BO'LAJAK FARMATSEVTLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SIMULYATSION VA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada simulyatsion ta'lim va raqamli ta'lim vositalari yordamida farmatsevtika yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi ko'rib chiqiladi. Farmatsevtika yo'nalishidagi III–IV kurs talabalari bilan o'tkazilgan pedagogik tajriba asosida ($n = 84$), virtual dorixona simulyatorlari, bemor bilan muloqotning standartlashtirilgan ssenariylari hamda elektron ta'lim muhitini qo'llash an'anaviy ta'lim modeliga nisbatan kasbiy kompetensiya ko'rsatkichlarining statistik jihatdan sezilarli darajada o'sishiga olib kelishi ko'rsatilgan. Muammo yuzasidan mahalliy va xorijiy manbalar sharhi keltirilgan, tadqiqot metodikasi yoritilgan, miqdoriy natijalar taqdim etilgan va muhokama qilingan.*

Kalit so'zlar: *farmatsevtika ta'limi, kasbiy kompetensiyalar, innovatsion ta'lim texnologiyalari, simulatsion ta'lim, ta'limni raqamlashtirish, provizor, kompetensiyaviy yondashuv.*

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE PHARMACISTS BASED ON SIMULATION AND DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

Annotation. *This article examines a methodology for developing professional competencies in pharmacy students through simulation-based training and digital educational tools. Based on a pedagogical experiment conducted with third- and fourth-year pharmacy students (n = 84), it is demonstrated that the implementation of virtual pharmacy simulators, standardized patient interaction scenarios, and digital learning environments leads to a statistically significant improvement in professional competence indicators compared to traditional teaching models. A review of domestic and international literature is provided, the research methodology is described, and quantitative results are presented and discussed.*